



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 13 - iyul

VI-66-121-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

Bulung'ur tumanida 2022-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining iyun oyi yakuni ijrosi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida "Xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi, kelgusidagi ustuvor vazifalar hamda hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish, 2022-yilda mehnat balansi va bandlik dasturini shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi 2021-yil 14-dekabr kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 55-sonli bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida tumanda 2022-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining iyun oyi yakuni ijrosi to'g'risidagi tuman hokimining birinchi o'rinbosari D.Xabibullayevning hisoboti eshilib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1.Tumanda 2022-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining iyun oyining yakuni ijrosi to'g'risida tuman hokimining birinchi o'rinbosari D.Xabibullayevning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2.Tuman hokimining o'rinbosarlari (D.Xabibullayev, A.Elmurotov, A.Xalikulov, A.Rizayev, A.Buriboyev, N.Mamadiyarova), tumandagi bo'lim va tashkilot rahbarlari bilan birgalikda, 2022-yilga mo'ljallangan xizmatlar dasturidagi tegishli bndlari ijrosini oyma-oy, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash bo'yicha tizimli tadbirlarni amalga oshirsin.

3. Tuman hokimi o'rinbosarlari (D.Xabibullayev, A.Elmurotov, A.Xalikulov,

A.Rizayev, A.Buriboyev, N.Mamadiyarova), tuman Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi (F.Shodmonov), tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (A.Shodmonov) yangi saylangan mahalla raislari hamda tegishli tashkilot rahbarlari bilan birgalikda:

har bir mahallaning xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jonlantirish;

bir oy muddatda hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari, xotin-qizlar faollari orqali loyiha tashabbuskorlarini aniqlab, ularni amalga oshirishga ko‘maklashish;

har chorakda “mahallani xizmatlar va servis markazi”ga aylantirish uchun zarur infratuzilmani hisob-kitoblarini xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashiga kiritib borsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Jabborov) va “Bulung‘ur hayoti” gazetasi (G‘.O‘rolov)ga tumanda xizmatlar ko‘rsatish sohasini rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar yuzasidan olib borilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

5.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Nomazov) hamda ijrosini ta‘minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullayev) zimmlariga yuklatilsin.

Kengash raisi



S.Astonov